O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori
_____ X.B.Yunusov
2025-yil “29” 08

Ro‘yxatga olindi: №BD-60840300-1.01
2025-yil “29” 08

O‘ZBEK TILI

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000 – Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya
Ta’lim sohasi:	840000 – Veterinariya
Ta’lim yo‘nalishi:	60840300 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi

Samarqand – 2025

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
O‘RT 1206	2025–2026	1	6

Fan modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	6

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	O‘zbek tili	90	90	180

2. I. “O‘zbek tili” fanining mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarning o‘zbek tilida soha bo‘yicha nutqiy kompetentligini oshirish; mutaxassislikka oid og‘zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalar soha bo‘yicha egallagan bilimlarni yozma va og‘zaki ravishda o‘zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish; sohada qo‘llanadigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo‘llanadigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta’minlash, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish. Talabalarning o‘zbek tilidan yozma nutqini takomillashtirish va savodxonlikni oshirish.

Fanning vazifasi – kundalik mehnat faoliyati hamda turmushda zarur bo‘lgan nutqiy mavzularda o‘zbek tilida mustaqil so‘zlay olish va yozish malakalarini takomillashtirish, ixtisoslikka oid turli nutq uslublarida matn tuza olish, uni o‘zgartira bilish malakalarini shakllantirish. Muayyan nutqiy mavzular doirasida zaruriy grammatik bilimlarni berish, ixtisoslik doirasida og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish, o‘zbek tilidagi axborotni tushunish, unga tanqidiy, tahliliy munosabat bildirishni o‘rgatish.

“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanining mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad –“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanidan talabalarning kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarida faoliyat olib borishi uchun o‘qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida ularda fan bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikmalarni muloqot va ish faoliyati jarayonida qo‘llash malakasini shakllantirishga qaratish, sohada qo‘llanadigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo‘llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta’minlash, nutq uslublari, xususan, sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish. Talabalarning o‘zbek tilidan yozma nutqini takomillashtirish va savodxonlikni oshirish

Fanning vazifasi – mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishishni ta’minlash; egallanayotgan soha bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarni o‘zbek tilining yozma va og‘zaki nutqi me’yor va qoidalari asosida mukammal o‘zlashtirishga va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o‘zbek tili adabiy normalariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta’minlashdan iborat.

II. Asosiy qism (amaliy mashg‘ulotlar)

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O‘zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasi tomonidan 60840300 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta’lim yo‘nalishida bakalavriat yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan “O‘zbek tili” fanidan tayyorlangan fan dasturiga berilgan

TAQRIZ

Mamlakatimizda Oliy ta’lim tizimida tub islohotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi **“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PF-5850-son farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi **„Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“**gi PF-6084-son farmoni qabul qilindi. Mazkur me’yoriy hujjatlarda „o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash“ asosiy maqsad qilib belgilangan. Mamlakatimizning ish yurituvchi mutaxassis kadrlari har jihatdan mukammal, bilimdon va zukko bo‘lishi, xalqaro andozalar miqyosida fikrlashi lozimligi bugungi kun talabidir. Respublikamizda yuqori darajali kadrlarni tayyorlash, nazariy fikrlash ko‘nikmasini shakllashtirish, birinchi talab bo‘lib kelmoqda..

“O‘zbek tili” fan dasturining asosiy qismida fanning mazmuni, maqsadi bayon etilgan , amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar yozilgan. Fanni o‘rganishda mustaqil ta’limga katta e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bu talabalarning bilim olishi, o‘z ustida muntazam ishlashlari uchun katta imkoniyat yaratadi.

“O‘zbek tili” fanining fan dasturi Davlat ta’lim standartlariga muvofiq tayyorlangan, ilmiy-uslubiy jihatdan mazmunli va ravon tilda yozilgan, amaldagi me’yoriy hujjatlarga mos kelishini inobatga olib, uni o‘quv jarayonida qo‘llashga va chop ettirishga tavsiya qilaman

Samarqand davlat chet tillar instituti
Qiyosiy adabiyotshunoslik
kafedrasi dotsenti, DSc **M.Xalova**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasi tomonidan 60840300 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishida bakalavriat yo'nalishi uchun mo'ljallangan "O'zbek tili" fanidan tayyorlangan fan dasturiga berilgan

TAQRIZ

Respublikamizda barcha sohalardagi kabi Oliy ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi **"O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi PF-5850-son farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi **„Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi PF-6084-son farmoni qabul qilindi. Mazkur me'yoriy hujjatlarda „o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash" asosiy maqsad qilib belgilangan. Mamlakatimizning ish yurituvchi mutaxassis kadrlari har jihatdan mukammal, bilimdon va zukko bo'lishi, xalqaro andozalar miqyosida fikrlashi lozimligi bugungi kun talabidir. Respublikamizda yuqori darajali kadrlarni tayyorlash, nazariy fikrlash ko'nikmasini shakllashtirish, birinchi talab bo'lib kelmoqda..

"O'zbek tili" fan dasturining asosiy qismida fanning mazmuni, maqsadi bayon etilgan , amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar yozilgan. Fanni o'rganishda mustaqil ta'limga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, bu talabalarning bilim olishi, o'z ustida muntazam ishlashlari uchun katta imkoniyat yaratadi.

"O'zbek tili" fanining fan dasturi Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tayyorlangan, ilmiy-uslubiy jihatdan mazmunli va ravon tilda yozilgan, amaldagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishini inobatga olib, uni o'quv jarayonida qo'llashga va chop ettirishga tavsiya qilaman

Samarqand davlat universiteti
Istiqlol davri adabiyoti va
adabiyot nazariyasi kafedrasi dotsenti **D.Jabborova**

II.1. "O'zbek tili" fani tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. "Davlat tili haqida"gi qonun va uning ijrosi. "O'zbek tili" fanining maqsadi va vazifasi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida. Dunyo tillari va o'zbek tilining o'rni. Umumxalq tili, milliy til, adabiy til va Davlat tili tushunchalari. O'zbek tili va huquqiy-me'yoriy hujjatlar. "Davlat tili haqida"gi qonunning qabul qilinishi.

2-mavzu. "O'zbekiston – yagona Vatan".

Grammatika: O'zbek tilining tovushlar tizimi: unli tovushlar va ularning imlosi.

O'zbek tilida tovushlar: unli tovushlar. Rus va o'zbek tilida unlilarning ifodalanishidagi farqli jihatlar. Unli tovushlar tizimi. Talaffuzi va imlosi farqlanuvchi unlilarning xususiyatlari. Qator unlilar talaffuzi va imlosi.

3-mavzu. "Mening universitetim".

Grammatika: O'zbek tilining tovushlar tizimi: undosh tovushlar va ularning imlosi.

O'zbek tilida tovushlar: undosh tovushlar. Rus va o'zbek tilida undoshlarning ifodalanishidagi farqli jihatlar. Undosh tovushlar tizimi. Talaffuzi va imlosi farqlanuvchi undoshlarning xususiyatlari. Qator va qo'sh undoshli so'zlar talaffuzi va imlosi.

4-mavzu. "Veterinariya asoslari". Grammatika: O'zbek tilida bo'g'in va uning turlari. Bo'g'inga ajratish va ko'chirish qoidalari.

Bo'gin va uning turlari: ochiq va yopiq bo'g'in. Bo'g'in tarkibi. Qator va qo'sh undoshli so'zlarni bo'g'inga ajratish. Bo'g'inga ajratish va bo'g'in ko'chirishdagi farqlar. Bo'g'in ko'chirish qoidalari.

5-mavzu. "Veterinariya tarixidan". Grammatika: O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: asos va qo'shimchalar imlosi.

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: asos va qo'shimchalar imlosi. So'z tarkibi. Asos morfema. Qo'shimcha morfema. Asosga qo'shimcha qo'shilishi natijasida kuzatiladigan tovush o'zgarishlari. Tovush almashinishi. Tovush tushishi. Tovush ortishi.

6-mavzu. "Kasbim – faxrim". Grammatika: O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yozish imlosi.

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: qo'shib yozish. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: chiziqcha bilan yozish imlosi. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: ajratib yozish imlosi. Qo'shma so'zlar, juft va takror so'zlar imlosi.

7-mavzu. "Veterinariya yo'nalishlari". Grammatika: O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: bosh harflar imlosi.

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari: bosh harflar imlosi. Atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi. Tarkibli otlarning qismlarini yozishda bosh harflarning ishlatilishi. Qisqartma otlarda bosh harflar imlosi.

8-mavzu. "Veterinariya terminlari". Grammatika: Leksikologiya. So'zning bir va ko'p ma'noliligi.

Leksikologiya bo'limi. So'z va uning ma'nolari. Atash ma'nosi (leksik ma'no). Bir ma'noli (monosemantik) va ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar. So'zlarning o'z va ko'chma ma'nosi.

	9-mavzu. "O'zbekiston qo'riqxonalari". Grammatika: Tilning leksik boyligining rivojlanishi: ichki manba va tashqi manba. O'zbek tilining lug'at boyligi. O'z va o'zlashgan so'zlar. O'zbek tilining boyish manbalari: ichki manba va tashqi manba. Sohaga oid o'zlashma so'zlar. Atamashunoslik. Ilmiy va kasbiy atamalar. **10-mavzu. "O'zbekistonning hayvonot va nabotot dunyosi". Grammatika: Sinonimlar va ularning turlari: leksik, frazeologik va morfologik sinonimlar.** So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari: sinonim, antonim, omonim, paronim so'zlar. Til birliklarida sinonimlik hodisasining yuzaga chiqishi: leksik, frazeologik va morfologik sinonimlar. Sinonim (ma'nodosh) so'zlarning tildagi ahamiyati. **11-mavzu. "Kitob mutolaasi – ma'naviy kamolotga erishish yo'li". Grammatika: Tilning paremiologik fondi.** Paremiologiya. Parema turlari. Tilning paremiologik fondi. Iboralar va ularning nutqdagi ahamiyati. Ibora va tasviriy ifodalarning farqi. Maqollar va ularning nutqimizdagi o'rni. Hikmatli so'zlar. **12-mavzu. "Veterinariya sohadagi yutuqlar". Grammatika: So'z yasalishi.** So'z yasalishi. Tub va yasama so'zlar. Morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsion) usul bilan so'z yasalishi. So'z yasash asosi. Faol so'z yasovchi qo'shimchalar. **13-mavzu. "Davrimizning veterinariya sohasidagi global muammolari". Grammatika: Mustaqil so'z turkumlari.** Grammatika: morfologiya va sintaksis. Morfologiyaning o'rganish obyekti. So'z turkumlari. Mustaqil so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l so'z turkumlari). **14-mavzu. "O'zbekistonda veterinar mutaxassislarni tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari". Grammatika: Kelishik qo'shimchalari.** O'zbek tilida kelishik shakllari va ularning matnda ifodalanishi. Bosh kelishik. Qaratqich kelishigi. Tushum kelishigi. Jo'nalish kelishigi. O'rin-payt kelishigi. Chiqish kelishigi. So'zlarning kelishik qo'shimchalari bilan bo'g'lanishi. Kelishik qo'shimchalarining ma'nodoshligi. **15-mavzu. "Tabiat, inson, salomatlik". Grammatika: Egalik shakllari va son kategoriyasi.** O'zbek tilida egalik shakllari va son kategoriyasi. Egalik qo'shimchalari va ularning ma'nolari. Son kategoriyasi: birlik va ko'plik shakllari. Ko'plik ma'nosi hamda ularning matnda ifodalanishi. Ko'plik qo'shimchasining uslubiy ma'nolari. **16-mavzu. "Veterinarning kiyinish madaniyati". Grammatika: Fe'llarning tuslanishi.** Fe'l so'z turkumi. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'lning ma'no turlari. Ish-harakatning bajaruvchisini ifodalash. Fe'llarda shaxs-son shakllari. Fe'llarning tuslanishi. **17-mavzu. "Huquqiy madaniyat. Veterinariya sohasiga oid me'yoriy hujjatlar". Grammatika: Fe'lning vazifa shakllari.**

8.	**"O'zbek tili" fani /moduli uchun mas'ullar:** **Y.T.Shaymanova** – SamDVMCHBU "O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi. **Z.A.Qarshiboyeva** – SamDVMCHBU "O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi. **"O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani /moduli uchun mas'ullar:** **Y.T.Shaymanova** – SamDVMCHBU "O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi. **Z.A.Qarshiboyeva** – SamDVMCHBU "O'zbek, rus tillari adabiyoti va xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi.
9.	**"O'zbek tili" fani bo'yicha taqrizchilar:** **D.Jabborova** – SamDU "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasi dotsenti. **M.A.Xalova** – SamDCHTI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti. **"O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani bo'yicha taqrizchilar:** **D.Jabborova** – SamDU "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasi dotsenti. **M.A.Xalova** – SamDCHTI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti.

qo‘llanishi (o‘quv qo‘llanma) –Toshkent: Fan ziyosi nashriyoti, 2023.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021- yil. – 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021- yil. – 36 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5850 - son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 40-son qarori.
8. Husanov.N., Husanova M., Xo‘jaqulova R., Yusupov Y. “Iqtisodiyotda texnik yozuv”. T.:“Fan va texnologiya markazi”, 2012. 152 b.
9. Ahmedova M.X., Gayubova K.A. “O‘zbek tili”. T. TATU, “Aloqachi”, 2019.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildli). - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005-2008.
11. Sohaviy lug‘atlar.
12. Hamidova Sh., Eshniyazova M. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand, 2022.
13. Qarshiboyeva Z., Shaymanova Y., Bozorova G. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand, 2023.

Axborot manbalari:

1. www. kutubxona.uz
2. www. ziyonet.uz
3. www. alishernavoiy.uz
4. http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx
5. https://www.lex.uz
6. http://library.ziyonet.uz

7. Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi “840000-Veterinariya” ta’lim sohasi bo‘yicha Kengashning 2025-yil “28 08 dagi 3 sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fe’lning vazifa shakllari. Sof fe’l shakli va unda ifodalanadigan asosiy grammatik ma’nolar. Harakat nomi va uning yasalishi. Sifatdosh shaklini hosil qiluvchi qo‘shimchalar. Ravishdoshlarning nutqda qo‘llanishi. Ravishdosh shaklini hosil qiluvchi qo‘shimchalar.

18-mavzu. “O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi”. Grammatika: Yordamchi va alohida olingan so‘zlar turkumi.

Yordamchi so‘z turkumlari. Bog‘lovchi va uning xususiyatlari. Yuklama va uning xususiyatlari. Ko‘makchi va uning xususiyatlari. Alohida olingan so‘zlar turkumi va ularning xususiyatlari. Undov so‘zlar. Taqlid so‘zlar. Modal so‘zlar.

19-mavzu. “Hayvonot va insoniyat olami psixologiyasi”. Grammatika: So‘zlarning bog‘lanishi.

So‘zlarning bog‘lanishi: teng va tobe bog‘lanish. Teng bog‘lanishni yuzaga ciqaruvchi vositalar. Tobe bog‘lanish. So‘z birikmasi. Erkin va turg‘un birikmalar va ularning nutqda qo‘llanishi.

20-mavzu. “Vatanparvarlik tuyg‘usi”. Grammatika: Gapda so‘zlar tartibi.

Gapda so‘zlar tartibi. Gap bo‘laklarining odatdagi joylashuvi: odatdagi tartib. Gap bo‘laklari tartibining o‘zgarishi: o‘zgargan tartib (inversiya). Gap bo‘laklari tartibibining ma’noga ta’siri.

21-mavzu. “O‘zbek veterinarlarining shuhrati”. Grammatika: Uyushiq bo‘laklarning matnda ishlatilishi.

Uyushiq bo‘laklar va ularning turlari. Uyushiq bo‘laklar qismlarining o‘zaro bog‘lanishi. Uyushiq bo‘laklarda umumlashtiruvchi so‘zlarning qo‘llanishi. Uyushiq bo‘laklarning matnda ishlatilishi.

22-mavzu. “Shaxs ma’naviyati”. Grammatika: Undalma va uning uslubiy xususiyatlari.

Undalma va uning turlari. Undalmaning gapdagi o‘rni. Undalmaning gapdagi boshqa bo‘laklar bilan munosabati. Undalma bilan birga qo‘llanuvchi birliklar. Undalmalarning uslubiy xususiyatlari.

23-mavzu. “Respublikamizda veterinariya fanining rivoji va yangi istiqboli”. Grammatika: Kiritmalar va ularning uslubiy xususiyatlari.

Kiritma va uning turlari. Sodda va murakkab kiritmalar. Kiritmaning gapdagi o‘rni. Kiritmaning gapdagi boshqa bo‘laklar bilan munosabati. Kiritmalarning uslubiy xususiyatlari.

24-mavzu. “Insoniy sifatlar”. Grammatika: Sodda gap va uning turlari.

Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari. Sodda gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari: darak, so‘roq, buyruq va istak gaplar. Hayajonli va jayajonsiz gaplar. Tasdiq va inkor gaplar. Yoyiq va yig‘iq gaplar.

25-mavzu. “Ona – eng yaqin do‘st”. Grammatika: Qo‘shma gap va uning turlari.

Qo‘shma gap va uning qismlarini bog‘lovchi vositalar. Bog‘langan qo‘shma gaplar. Ergashgan qo‘shma gaplar. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar. Qo‘shma gaplarning ma’nodoshligi. Qo‘shma gaplarning uslubiy xususiyatlari.

26-mavzu. “So‘z sehri”. Grammatika: Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar.

Nutqda o‘zganing gapidan foydalanish. Ko‘chirma gapli qo‘shma gap. Ko‘chirma gap va muallif gapi. Ko‘chirma gapli qo‘shma gapda tinish

belgilarining ishlatilishi. O'zlashtirma gaplar.

27-mavzu. "Sog'lom turmush tarzi". Grammatika: Matn va uning turlari.

Matn va uning xususiyatlari. Matn unsurlari. Sarlavha, xatboshi, epigraf, iqtibos. Matn turlari. Mikromatn va makromatn. Ilmiy, badiiy, rasmiy va publitsistik matn turlari. Matnning maqsadiga ko'ra turlari: tavsifiy matn, hikoya matni, muhokama matn.

28-mavzu. "Kelajakka yo'l". Grammatika: Matnni kengaytirish va toraytirish.

Matn mazmunini yoritish. Matnni kengaytirish. So'z birikmalari, iboralar, tasviriy ifodalardan unumli foydalanish. Matnni toraytirish. Matndagi asosiy fikrni aniqlash. Tayanch so'z va iboralarni ajratish.

29-mavzu. "Tarjimayi hol". Grammatika: Nutq uslublari va uslubiy bo'yoqdorlik.

Nutq uslublari va uslubshunoslik. Nutq uslublarining turlari: ilmiy, rasmiy, badiiy, publitsistik va so'zlashuv uslubi. Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar. Uslubiy bo'yoqdorlik.

30-mavzu. "Suhbat odobi". Grammatika: Nutq madaniyati.

Til va nutqning farqi. Nutqning xususiyatlari. Nutqning aniqligi. Nutqning to'g'riligi. Nutqning sofligi. Nutqning boyligi. Nutqning jo'yaliligi. Nutqning ta'sirchanligi. Nutqning ifodaliligi. Nutq madaniyati. Nutq odobi.

II.2. "O'zbek tilining sohada qo'llanishi fani" tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Kirish. "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanining o'rganish obyekti, maqsadi va vazifalari.

Til ijtimoiy hodisa sifatida. Dunyo tillari va o'zbek tilining o'rni. Umumxalq tili, milliy til, adabiy til va davlat tili tushunchalari. O'zbek tili va huquqiy-me'yoriy hujjatlar. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun va uning ijrosi. O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanining o'qitilish asoslari.

2-mavzu. Til va yozuv masalalari.

Yozuv haqida umumiy ma'lumot. Og'zaki va yozma nutq. Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti. O'zbek yozuvlari tarixidan. Harf va alifbo. O'zbek yozuvlarining rivojlanish bosqichlari. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi va uning ijrosi. Grafika. Orfografiya.

3-mavzu. O'zbek tilining imlo qoidalari.

Unlilar imlosi. Undoshlar imlosi. Asos va qo'shimchalar imlosi. So'z tarkibi. Asos morfema. Qo'shimcha morfema. Asosga qo'shimcha qo'shilishi natijasida kuzatiladigan tovush o'zgarishlari. Tovush almashinishi. Tovush tushishi. Tovush ortishi. Qo'shib yozish. Chiziqcha bilan yozish. Ajratib yozish. Bosh harflar imlosi. Ko'chirish qoidalari.

4-mavzu. So'z va uning ma'nolari.

So'z va leksema. Leksikologiya. Bir ma'noli (monosemantik) va ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar. So'zning atash ma'nosi. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari. So'zlarda hissiy-ta'siriy munosabat ifodasi. Bo'yoqdor so'zlar. Ijobiy

"O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5850 - son qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 40-son qarori.
8. Husanov.N., Husanova M., Xo'jaqulova R., Yusupov Y. "Iqtisodiyotda texnik yozuv". T.:"Fan va texnologiya markazi", 2012. 152 b.
9. Ahmedova M.X., Gayubova K.A. "O'zbek tili". T. TATU, "Aloqachi", 2019.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli). - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005-2008.
11. Sohaviy lug'atlar.
12. Hamidova Sh., Eshniyazova M. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2022.
13. Qarshiboyeva Z., Shaymanova Y., Bozorova G. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2023.

Axborot manbalari:
1. www. kutubxona.uz
2. www. ziyonet.uz
3. www. alishernavoiy.uz
4. http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx
5. https://www.lex.uz
6. http://library.ziyonet.uz

'O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani bo'yicha

Asosiy adabiyotlar

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N. va boshqalar. Davlat tilida ish yuritish (amaliy qo'llanma) – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxammedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
3. Sadinova N. Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent, 2019.
4. Shaymanova Y. O'zbek tili (o'quv qo'llanma) – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti: Nashr matbaa markazi, 2024.
5. Bozorova G., Shaymanova Y., Qarshiboyeva Z. O'zbek tilining sohada

4.	**V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** **"O'zbek tili" fani bo'yicha** • interfaol keys-stadilar; • mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar tayyorlash; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. **"O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani bo'yicha** • interfaol keys-stadilar; • mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar tayyorlash; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VI. "O'zbek tili" fani bo'yicha kreditlarni olish uchun talablar:** Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish. **"O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani bo'yicha kreditlarni olish uchun talablar:** Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.
6.	**'O'zbek tili" fani bo'yicha** **Asosiy adabiyotlar** 1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N. va boshqalar. Davlat tilida ish yuritish (amaliy qo'llanma) – Toshkent: O'zbekiston, 2021. 2. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxammedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018. 3. Sadinova N. Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent, 2019. 4. Shaymanova Y. O'zbek tili (o'quv qo'llanma)–Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti: Nashr matbaa markazi, 2024. 5. Bozorova G., Shaymanova Y., Qarshiboyeva Z. O'zbek tilining sohada qo'llanishi (o'quv qo'llanma) –Toshkent: Fan ziyosi nashriyoti, 2023. **Qo'shimcha adabiyotlar** 1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021- yil. – 52 bet. 2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021- yil. – 36 bet. 3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent,

	bo'yoqdor so'zlar. Salbiy bo'yoqdor so'zlar. Betaraf so'zlar. **5-mavzu. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.** Shakldosh (omonim) so'zlar haqida ma'lumot. Talaffuzdosh (paronim) so'zlar haqida ma'lumot. Ma'nodosh (sinonim) so'zlar haqida ma'lumot. Zid (antonim) ma'noli so'zlar haqida ma'lumot. Uyadosh so'zlar haqida ma'lumot. Variantdosh so'zlar haqida ma'lumot. **6-mavzu. Til va terminologiya.** Termin va terminologiya haqida umumiy ma'lumot. Terminlarning umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadigan o'ziga xos xususiyatlari. Terminlarning turlari. Ilmiy terminlar oldiga qo'yiladigan talablar. Sohaga oid terminlarning o'ziga xosliklari. Xalqaro terminlar. **7-mavzu. Terminlarning yasalishi.** Terminlarning tuzilishga ko'ra turlari. Tub va yasama terminlar. Sodda (bir asosli) terminlar. Qo'shma (ikki va undan ortiq asosli) terminlar. Terminlarning morfologik usulda yasalishi. Ilmiy terminlarning sintaktik usulda yasalishi. Leksikalizatsiya usuli. O'z va o'zlashma terminlar. **8-mavzu. Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.** Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar. So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Oddiy so'zlashuv uslubi. Adabiy so'zlashuv uslubi. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari. Publitsistik uslub va uning uslubiy xususiyatlari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari. **9-mavzu. Adabiy nutq me'yorlari.** Me'yor tushunchasi. Umumiy me'yor. Xususiy me'yor. O'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari. Fonetik me'yor. Aksentologik me'yor. Grafik (yozuv) me'yor. Orfografik me'yor. Orfoepik me'yor. Leksik me'yor. So'z yasalish me'yori. Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor. Punktuatsion me'yor. Uslubiy me'yor. Nutq jarayonida me'yorning buzilishi va ularni tuzatish yo'llari. **10-mavzu. O'zbek adabiy tilida tinish belgilarining ishlatilishi.** Nuqta va uning qo'llanishi. Vergul va uning qo'llanishi. So'roq va uning qo'llanishi. Undov belgisi va uning qo'llanishi. Qavs va uning qo'llanish o'rinlari. Ko'p nuqta va uning qo'llanish o'rinlari. Tire va uning qo'llanish o'rinlari. Qo'shtirnoq va uning qo'llanish o'rinlari. Ikki nuqta va uning qo'llanish o'rinlari. Nuqtali vergul va uning qo'llanish o'rinlari. **11-mavzu. Muloqot jarayoni va uning ko'rinishlari.** Muloqot haqida tushuncha. Muloqotning kommunikativ (axborot uzatish) jihati. Muloqotning interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) jihati. Muloqotning perseptiv (o'zaro birgalikda idrok etish) jihati. Muloqot turlari va shakllari. Bevosita muloqot. Bilvosita muloqot. Muloqotning psixologik vositalari. Muloqot madaniyati. **12-mavzu. Nutqning xususiyatlari.** Nutqning madaniyligini ta'minlovchi kommunikativ sifatlar. Nutqning to'g'riligi. Nutqning aniqligi. Nutqning mantiqiyligi. Nutqning sofligi. Nutqning boyligi. Nutqning jo'yaliligi. Nutqning ifodaliligi. Adabiy nutqning sofligiga

putur yetkazuvchi unsurlar.

13-mavzu. Matn va uning ko'rinishlari.

Matn haqida umumiy tushuncha. Matnning hajmiga ko'ra turlari. Mikromatn. Makromatn. Matnning uslubiy xususiyatiga ko'ra turlari. Ilmiy matn Badiiy matn. Rasmiy matn. Ommabop matn. Matnning maqsadiga ko'ra turlari. Hikoya matni. Tasviriy matn. Muhokama matni.

14-mavzu. Hujjat turlari va ularning xususiyatlari.

Hujjatchilik tarixi haqida. Ish yuritish hujjatlariga qo'yiladigan talablar. Ish yuritish hujjatlarining qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra turlari. Tashkiliy hujjatlar. Farmoyish hujjatlari. Ma'lumot-axborot hujjatlari. Xizmat yozishmalari. Ish yuritish hujjatlariga xos nutqiy qoliplar.

15-mavzu. Ish yuritish hujjatlari turlari.

Ish yuritish hujjatlarining tuzilishga ko'ra turlari. Hujjatlarning mazmuniga ko'ra turlari. Mazmun bayonining shakli jihatidan hujjat turlari. Hujjatlarning tegishlilik jihatiga ko'ra turlari. Hujjatlarning tayyorlanish xususiyatiga ko'ra turlari. Hujjatlardagi zaruriy qismlar (rekvizitlar) va ularni rasmiylashtirish.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur.

Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanishi maqsadga muvofiq.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

III.1. "O'zbek tili" fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida belgilangan vazifalarning amalda bajarilishi bo'yicha tilshunos va adabiyotshunos olimlarning fikr va mulohazalari bayon etilgan maqolalar bilan tanishish.
2. Til va yozuv. "Kirill va lotin alifbosining farqlari" mavzusida material tayyorlash (venna diagramma asosida).
3. "Davlat tili va men egallayotgan soha" mavzusida matn yozish.
4. Turli millatlarning urf-odatlari va an'analari mavzusida ijodiy matn tuzish. Turli millat qadriyatlarni konseptual jadval asosida qiyoslash.
5. "Yoshlar – innovatsion g'oyalar tashabbuskori" mavzusida ko'rgazmali material tayyorlash.
6. Dunyoning mashhur universitetlaridan biri haqida buklet tayyorlash.
7. Til va terminologiya. Mutaxassislik atamalari lug'atini yaratish, ular ishtirokida gaplar tuzish.
8. Sohaga aloqador hayot manzarasi aks ettirilgan ixtiyoriy badiiy asar mutolaasi. "Asar taassurotlari" mavzusida esse yozish.
9. "Yangi davr adabiyotlari" mavzusida slayd tayyorlash.
10. Chingiz Aytmatov asarlarida sohaga oid atamalar ishtirok etgan gaplar asosida tarqatma materiallar tayyorlash.
11. Sohaga oid ixtiyoriy reklama matnini tahlil va tahrir qilish.

12. Egallanayotgan soha bo'yicha ilmiy maqola yozish.
13. "Mutaxassisning odobi va nutqi" mavzusida dialogik matn yaratish.
14. "Alisher Navoiy – o'zbek adabiy tilining asoschisi" mavzusida ko'rgazmali qurol tayyorlash.
15. Ish yuritish hujjatlaridan namunalar yozish.
16. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan vazirliklar nomini o'rganish hamda shu mavzuda insho yozish.
17. O'zbek xalq maqollaridan namunalar yozish va yodlash (30 ta).
18. O'zbek xalq topishmoqlaridan namunalar yozish va yodlash (30 ta).
19. "Buyuk ipak yo'li va uning insoniyat tarixidagi o'rni" mavzusida insho yozish.
20. "Ibn Sinoning "Tib qonunlari" mavzusida matn yozish.

III.2. "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Matn turlari va tarkibi.
2. Hujjatchilik tarixi va rivojlanishi.
3. Ish hujjatlari namunalarini yaratish (ariza, bildirgi, tarjimayi hol).
4. Til va terminologiya. Mutaxassislik atamalari lug'atini yaratish.
5. Badiiy asar mutolaasi ("Chol va dengiz", "Qiyomat", "Yovvoyi yo'rg'a", "Qorako'z majnun", "Ot kishnagan oqshom"). Asar taassurotlari asosida fikr va mulohazalarini bayon qilish.
6. Sohaga oid ilmiy matn tuzish.
7. Ixtiyoriy sohaga oid matn tanlab, uni tahlil qilish.
8. Egallayotgan sohangiz bo'yicha ilmiy maqola yozish.
9. Mutaxassisning odobi va nutqi mavzusida dialogik matn yaratish.
10. O'zbek tili leksikasining boyish manbalari. Sohaga oid o'z va o'zlashgan so'zlar tasnifi.

3. **IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

IV.1. "O'zbek tili" fanini o'zlashtirish natijasida talaba:

- o'zbek tilidagi matnlarni o'rganish, amalda qo'llash va tahlil qila olish, hujjatlarni tayyorlash va yuritishda o'zbek tilining imlo qoidalariga qat'iy amal qilish haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- o'zbek tilida kasbiy muloqot yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishi, ***bilishi va ulardan foydalana olishi kerak.***

IV.2. "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanini o'zlashtirish natijasida talaba:

- o'zbek tili imkoniyatlaridan amalda to'g'ri foydalanish kompetentsiyasiga, o'zbek tilini sohada qo'llash bo'yicha ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- o'zbek tilida sohaga oid oid atamalarni tushunish, ularni mutaxassisligi mavzusidagi muloqotda mustaqil qo'llay olish jarayonlarining xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***
- sohaga oid matnlar bilan o'zbek tilida tanishish, matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish, tizimli tahlil qilish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***